

Odning adovati



15:00 / 19.12.2020 3114

Od qavmining kuchi, o'zlariga va insonlarga zararli bo'lib qoldi. Chunki ular, Allohga va oxirat kuniga ishonib, iymon keltirmadilar. Ularni nima zulmdan va dushmanchilikdan man qiladi? Nima uchun insonlarga zulm qilmasinlarki, ular o'zlaridan yuqorida hech kimni (kuchli deb) ko'rmaydilar. Hisob kitobdan va azobdan qo'rqmaydilar. Ular o'rmondagi yovvoyilardek, kattalari kichiklariga zulm qilar va kuchlilari kuchsizlarini yer edi. Agar g'azablansalar, g'azabnok fildek bo'lardilar, uchratgan narsalarini o'ldirardilar.

O'zaro urishib ekin-tikinga, naslga qirg'in keltirishardi.

Agar biror qishloqqa kirsalar, u yerda buzuqlik qilib, ulug'larini xorlardilar. Ojizlar esa ularning yomonliklaridan qo'rqib, ularning zulmidan qochardilar. Ularning kuchlari, o'zlariga va insonlarga zararli bo'lib qoldi. Allohdan qo'rqmagan va oxiratga ishonib, iymon keltirmaganlar ham mana shunday bo'ladi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad